

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**“Pedagogika” fakulteti
“San’at” kafedrasi**

TASVIRIY SAN’AT TARIXI FANIDAN

KURS ISHI

Mavzu: «Chet el rassomlari hayoti va ijodi»

Bajardi:

2“A” guruh talabasi – Abdieva Moxigul

Ilmiy rahbar:

***“San’at” kafedrasi
o’qituvchisi – Musinova A.***

Kafedra mudiri:

p.f.n dotsent - Madrimov B.X.

Buxoro-2014 yil

Mavzu: «Chet el rassomlari hayoti va ijodi»

Reja:

I. Kirish

II. Asosiy qism

2.1 Leonardo da Vinchi hayoti va ijodi

2.2. Mikelanjelo ijodi

2.3. Yakopo Sansovino ijodi

2.4. Sandro Bottichelli ijodi

Xulosa

Ilovalar

Adabiyotlar ro'yxati

Kirish

San'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik hissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi; aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrda paydo bo'ldi. San'at esa o'zining o'ziga xos xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfnings ideologiyasini targ'ib etuvchi kuchli g'oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan etishib chiqqan iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning go'zallik va xudbinlik, oliyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, hulq va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topdi. Har bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilishga da'vat etdi.

Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'g'risidagi fikr-o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir. Jahon san'ati tarixini o'rgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o'tmish odamlarning his-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish g'oyaviy-istetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz, kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondoshishga yordam beradi. Tasviriy san'at turlariga rangtasvir, arxitektura, grafika, haykaltaroshlik kiradi.

Rangtasvir tasviriy san'atning eng muhim turlaridan bo'lib, maxsus polotnolarga, devorlarga ishlanadi. Tasviriy san'at asarlarida ifodalangan maqsad va mazmunni ochib berishda rang muhim o'rin egallaydi.

Rangtasvir asarlari xususiyatiga ko'ra dasgohli mahobatli monumental, dekorativ, mo'jaz, turlarga bo'linadi.

Monumental rangtasvir me'morchilik bilan bog'liq bo'lib, ular uylarning devorlarini, shiftlarini bezashda qo'llaniladi. Katta hajmda uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi uchun bular yaxlitlashtirilgan holda ishlanadi, ranglar ham shartli ravishda olinadi.

Mo'jaz san'at asarlari turli mamlakatlarda shu jumladan O'zbekiston hududida juda ham qadim zamondan taraqqiy etib, qadimiy qo'lyozmalarga ishlangan. Chunonchi, Alisher Navoiyning "Xamsa" asarlariga ishlangan rasmlar bunga misol bo'la oladi.

Dastgohli rangtasvir asarlari keng tarqalgan bo'lib, maxsus matolar, karton, yog'och, romkaga tortilgan mato-xolst va shu kabilarga ishlanadi. Dastgohli rangtasvir moybo'yoq, guash, suvbo'yoq, tempera buyoqlarida maxsus dastgoh (molbert)larga o'rnatilib ishlanadi.

Grafika - lotincha "grafo" so'zidan olingan bo'lib, "yozaman", "chizaman" degan ma'noni anglatadi. Tasviriyl san'atning bu turiga oddiy va rangli qalamda ko'mir, pastel, sangina, suvbuyoq, guash va tushda ishlangan bezaklar, turli plakatlar, hajviyl rasmlar va haqazolar kiradi.

Haykaltaroshlik - tasviriyl san'at turlaridan biri. U lotincha "skulpo" so'zidan olinib, qattiq materiallarga "qirqish, kesish, o'yish, taroshlash" orqali ishlov berish ma'nosini anglatadi.

II. Asosiy qism

Realizm taraqqiyotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Realistik san'atda sodir bo'lgan o'zgarishlar Eduard Mone ijodida yaqqol namoyon bo'ldi. Uning ijodi keyingi realistik san'at taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazdi. Mone asarlarida Parij ko'chalari, hiyobon va kaffelari, odamlarning hayoti tasvirlanadi. Bir qarashda juda sodda syujetlarda rassom go'zallikni ko'rsata oldi. Shu go'zallikni tasviriy san'at tili bilan tomoshabinga yetkazdi. Uning hajm jihatidan katta bo'lmagan, syujeti jihatidan sodda asarlari o'zining voqiylikni tilaklarni, butun borlig'i bilan aks ettirishi bilan kishi qalbiga quvonch baxsh etadi. Tabiatning rangdorligi, shakllarning rang-barangligi esa bu lavhalarga yanada go'zallik kiritadi. Shu boisdan ham tezda ko'pchilik diqqatiga sazovor bo'ldi. 1860 yilning rassomlari uning ishiga, ishlash uslubi va syujet tanlashiga taqdid qila boshladilar. Qator yoshlar esa uni o'zining ustoz deb bildilar va uning atrofiga yig'ildilar. Uning izlanishlarini davom ettirib jahon san'ati tarixida yangi oqim - impressionizm oqimiga asos soldilar. Impressionizm so'zining lug'aviy ma'nosi taassurot bo'lib, Rassomlar o'z asarlarida zamonaviy voqealarni turli ko'rinishda tasvirlash va eng muhimi shu voqe'likdan olgan birinchi taassurotlarini tasvirlashga harakat qildilar. Shu hoisdan ular naturaga alohida e'tibor bera boshladilar. Kenglik va havoni, nur va rang jozibasini holstda jonlantirish masalasi ular uchun muhim masalalardan bo'lib qoldi. Impressionizm oqimining o'ziga xos tomoni shu uning

asoschilaridan biri Klod Monening "Pichantarami", "Kuknori dalasi", Onore Renuarning "Madam Samari", "Yalang`och ayol", Edgar Deganing "Xavorang libosli raqqosalar", "Balet sinfi", Kamil Pissaroning "Parij ko`chalari" kabi suratlarida yaqqol namoyon bo`ldi.

2.1 Leonardo da Vinchi hayoti va ijodi

Italiya san'ati taraqqiyotining «oltin asri» hisoblanagan shu davrda yashab ijod etgan buyuk titanlar Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Mikelanjelo, Tistian o'z mohiyati jihatidan chuqur, mahoratli jihatidan yuksak, barkamol asarlar yaratdilar. Ular o'zlarining har tomonlama o'tkir va bilimdonliklari bilan ham o'z davrlarining ideal kishilari timsoliga aylandilar. Ular yaratgan obrazlar esa gumanistik g'oyalarni o'zida mujas-samlantirdi.

Jismoniy baquvvat, ma'naviy barkamol, har qanday diniy ta'sirlardan xoli bo'lgan, o'zi va o'zgalar uchun kurasha oladigan, xalq manfaatini o'z manfaatidan yuqori qo'ya oladigan inson davrning, san'at asarlarining bosh qaxramoniga aylandi. Shu bilan birga, shu yuqori Uyg'onish davri san'ati qo'ynida tushkunlikni targ'ib etuvchi gumanizm g'oyalaridan uzoq bo'lgan manerizm oqimi yoyila boshladi.

Me'morlik. Yuqori Uyg'onish davri me'morligining asosiy prinsiplari Rimda shakllandi va rivojlandi. Davrning gumanistik tamoyillari ulug'vor va tantanali me'morlik kompozitsiyalarida o'z ifodasini topdi. Amaliy ijodda antik me'morlik orderlari erkin va ijodiy ishlatila boshlandi. Italiyada rivojlanib kelayotgan me'morlik uslublari umumlashtirilib, yagona milliy me'morlik uslubi yaratildi.

Donato d' Anjelo Bramante (1444-1514) yangi davr me'morligining asoschisi va yirik vakilidir. U o'z ijodini Milanda (1472-1499) boshladi. Lekin Rimga ko'chib kelgandan keyingina bu erda antika san'atini o'rganish va o'zlashtirish asosida o'sha davr kishilari qarashlariga mos bo'lgan bir qator yirik me'morlik kompozitsiyalari ishlab, davrning harakterli uslubini yaratdi. Uning bu yangi tamoyillari Tempetto deb nomlangan ibodatxonada namoyon bo'ldi. Aylanasimon rejada ishlangan gumbazli bino atrofi ustunlar bilan o'rab chiqilgan. Hajmi jihatdan katta bo'lmagan bu bino o'zining mahobatlilik bilan yaxshi taassurot qoldiradi.

Bramante ijodinnng eng yuksak namunalari Vatikanda qurilgan binolardir. Rim papasi Vatikanni rekonstruktsiya qilishni maqsad qiladi va uni Bramantega topshiradi. U bu erda mavjud dastlabki binolarni tartibga keltirish va ulardan yagona ansambl to'zishga kirishadi, qator galereya va zinalar qurdiradi, keng, quyosh nuriga to'la hovlilar yaratib, yirik ansambl tashkil etadi.

Bramantening muhim asarlaridan biri Rimdagi avliyo Pyotr soborining loyihasidir. Me'mor bu bino qurilishiga markaziy qubbali bino ko'rish prinsipini asos qilib oldi. Sobor rejasi asosiga kvadrat va uning ichida hamma tomoni teng bo'lgan grek buti olingan. Pastki qator qurilmalar ustiga o'rnatilgan gumbaz ustunlar bilan o'ralgan, uning tepasida to'ng'ayilgan qozonni eslatuvchi katta (diametri 43 m) gumbaz joylashgan. Bramante loyihasi to'liq amalga oshmadi. U faqat gumbaz osti piloni va soborning tashqi devorlarini qurishga ulgurdi. U vafot etganidan so'ng sobor kurilishi

bilan qator me'morlar shug'ullandilar. Bramante palaststo kurilishi san'atida ham muhim rol o'ynadi, pilyastr, gorizontaI tasma va karnizlarning o'ziga xos yaxlit va soddaligi bilan qurilgan binolariga maxobatlik va ulug'vorlik baxsh eta oldi.

Tasviriy san'at. Florensiya ilk Uyg'onish davri an'analari yuqori Uyg'onish davri uchun asos qilib olindi va rivojlantirildi. Tasviriy san'atda sodir bo'lgan xususiyatlar ham me'morlikdagi singari ulug'vorlikka, umumlashgan obrazlar yaratish hamda maxobatli bo'lishiga harakat kilishda namoyon bo'ldi.

Leonardo da Vinchi (1452-1529). Leonardo da Vinchi Vinchi qishlog'i yaqinida, notarius oilasida dunyoga keldn. Leonardo 17 yoshlik paytida otasi Florensiyaga ko'chib o'tadi. Shu erda Leonardo Andrea Verokkio ustaxonasida tasviriy san'at borasidagi biliminn oshirdi. U o'z ustozl Verokkioga yordamlashib, uning «Isoni cho'qintirish» (tax. 1476 y., Florensiya, Uffisti galereyasi) asarining chap tomonidagi farishta rasmini ishlaydi va ustozidan ham moxirligini ko'rsatadi . Yuqori Uyg'onish davri uslubining asoschisi va tipik vakili Leonardo da Vinchi san'atning ko'pgina turlarida o'z kuchini sinab

ko'rdi, matematika mexanika, fizika sohisida ilg'or fikrlarni ilgari surdi. Leonardo uchun san'at hayotni bilish vositasi bo'ldi. Uning real voqelik asosida ishlagan suratlari keyinchalik ilmiy asarlari uchun illyustratsiya vazifasini o'tadi. Ijodkor harakteriga xos bo'lgan bu xususiyat u yaratgan rangtasvir asarining o'ziga xos tomonlarinn belgilaydi. Uning har bir asari hayotni o'rganish zamirida yuzaga kelgan, ijodkorning qalb harorati bilan isitilgan va hayotga bo'lgan munosabatini ifodalovchi asarlardir. Rassomning «Gul ushlagan Madonna» (Benua Madonnasi) deb nomlangan ilk asarida shunday hislatlar mavjud. Rassom kompozistiyada ortiqcha detal va lavhalardan voz kechib, tasvirlanuvchining harakteristikasini kuchaytirishga, shakllarini umumlashtirishga intilgan. Kompozistiyada yosh ona tizzasida o'tirgan go'dakning ona qo'lidagi gulga talpinayotgan payti tasvirlangan. Tepa tomondan tushayotgan yorug'lik tasvirning yanada yaqqol ko'rinishiga imkoniyat yaratgan. Darchadan ko'rinayotgan osmon kompozistiya muvozanatligiga xizmat qilib, obrazni cheksiz tabiat bilan o'zviy bog'lagan. Asarda xech qanday diniy-mistik kayfiyat yo'q. Ona va bola boshi atrofiga ishlangan tilla gardishni hisobga olmaganda, hammasi oddiy florenstiyalikning uyidagi baxtni, ona va bola shodligidagi go'zallikni kuylovchi asar sifatida namoyon bo'ladi Bu asar dunyo sirlarini bilishga qiziqan, nur va go'zallikka intilgan insonni sevgan rassomning Duneqarashini namoyon qiladi.

Rassom har bir asar ustida uzoq vaqt ishlar, ishlanadigan har bir obraz va detalning hayotiy bo'lishi uchun dastlab ularni aloxida naturaning o'zidan ishlab, o'rganib, so'ng kom-pozistiyaga ko'chirar edi. Bu unga berilgan buyurtmalarning ba'zan vaqtida tugallanmasligiga sabab bo'lar, buyurtmachi bilan nizolar kelib chiqar edi. «Sexrgarlar ta'zimi», «Avliyo Ieronim» kabi asarlarning yarimtugal holatda qolishiga ham sabab shudir. Leonardo Milanda yashagan kezlari 1482-1499 yillarda u o'zini olim, rassom, injener sifatida namoyon etish imkoniyatiga erishdi. U o'z faoliyatini haykaltaroshlik bilan boshladi. Milan hokimi Lodoviko Moro otasi uchun yodgorlik modelini ishladi. Lekin 1499 yili

Milanning fransuz qo'shinlari tomonidan bosib olinishi bu ishni amalga oshirish imkoniyatini bermadi.

Me'mor sifatida ham Leonardo Milanda bir qator surat va proektlar ishladi. «G'ordagi madonna» (1483-1494), «Sirli oqshom» (1495-1497) kabi mashhur asarlarini yaratdi. Milandagi «Sant Mariya della Grastie» monastri uchun ishlagan mashhur «Sirli oqshom» devoriy surati Leonardo da Vincini novator rassom darajasiga ko'taradi. U injildan olingan an'anaviy syujetni erkin va asosan, obrazlarning his-tuyg'u va kechinmalarini ishonarli talqin etishi hisobiga ochadi. Milan fransuz qo'shinlari tomonidan bosib olingan yili Leonardo Florensiyaga qaytib keladi. Bu erda «Angiari oldidagi jang» devoriy suratining kartonini yaratadi, shuningdek, o'zining mashhur asari «Mona Liza» (Jakonda) asarini ishlaydi. «Mona Liza» portreti (1503) jahon rangtasvirining mashhur yodgorligidir (14-rangli rasm). Bu portret bilan Evropa san'atida chuqur psixologik portret san'ati boshlanadi.

Aslida xotirjam, o'z suhbatdoshiga nisbatan samimiy va mehr ko'zi bilan boqib o'tirgan florensiyalik ayol tasvirlangan. Uning ortida murakkab tabiat ko'rinishi aks ettirilgan. Ayol shu tabiatning ajralmas qismi va u bilan o'zviy bog'langan. Sochlari, kiyimlaridagi buklanish va jimjimalar go'yo tabiat ritmini qaytarayotgandek tuyuladi. Ana shular fonida mayin va nozik qilib ishlangan ayol qiyofasi, nixoyatda chiroyli qo'llari yanada latofatli va go'zal bo'lib tuyuladi. Bu latofat va go'zallik uning nigohidagi samimiylik va mehribonlik bilan uyg'unlashib, ideal go'zal inson qiyofasini gavdalantiradi.

Leonardo da Vinchi umrining oxirida ilmiy kuzatish va ularni sistemalashtirish ustida ish olib boradi. Rang-barang tasvir haqida risola yozishga kirishadi. Bu risola tugallanmagan bo'lsa ham, to'plangan va saqlanib qolgan qismlari uni realistik san'atning etuk nazariyotchisi sifatida namoyon qilgan. Uning chiziq, rang perspektivasi, rangshunoslik haqida yozib qoldirgan fikrlari hanuzgacha o'z qiymatini yo'qotmagan.

Rafael Santi (1483-1520). Uyg'onish davriniyag yuksak gumanistik ideallari shu davrning titanlaridan biri Rafael Santi ijodida o'zining tugal va poetik talqinini topdi.

Leonardoning kichik zamondoshi Rafael san'atdagi o'zigacha bo'lgan yutuqlarni o'zlashtirgani holda, garmonik kamol topgan go'zal inson obrazini yaratdi, mu'tabar ona obrazi orqali davrning yuksak g'oyalarini ifodaladi.

Oddiy rassom Jovanni Santining farzandi Rafael tasviriyot asoslarini dastlab o'z otasidan, so'ngra mahalliy urbinalik rassom Timoteo Viti ustaxonasida davom ettirdi. 1500 yil Perudjino (Petro Vanuchchi) ustaxonasida o'z bilimini oshirdi. Perudjino ijodi Rafaelga sezilarli ta'sir o'tkazdi. Uning obrazlarni fazoda erkin va tabiiy holda joylashtirish va tasvirlashga intilish, muhit bilan uyg'unlikda ko'rsatish kabi fazilatlari Rafael ijodida sezilarli iz qoldirdi.

Rafael ijodi juda erta boshlandi. O'n etti yoshida yaratgan ilk asari«Konestabile madonnasi» (1500) rassomni ijodiy kamolotga erishgan, aniq. insoniy pozistiyaga ega bo'lgan san'atkor sifatida namoyon etdi. Bu asarda qo'lidagi kitobga talpinayotgan go'dakka mehr ko'zlari bilan boqib turgan yosh ona tasvirlangan. Ortida sokin tabiat, uning qo'ynida o'z yumushi bilan band odamlar ko'rinadi. Hammayoqda tinchlik va osoyishtalik xukm suradi. Rafael bu asarida obrazlar harakatining tabiiy bo'lishiga erishgan holda, yosh onaga xos bo'lgan lirik kayfiyat hamda voqelikdan zavqlanish holatini ustalik bilan ko'rsata olgan. Chiziq. plastikasi, nafis ranglar garmoniyasi esa shu xolni yanada chuqurlashtirib, uning emostional tomonini orttirishga xizmat qiladi.

Perudjiyada 4 yilga yaqin bo'lganidan so'ng Rafael yana Urbinoga qaytadi va bir ozdan so'ng Florenstiyaga keladi. Bu erda o'zining mashhur bo'lishiga sabab bo'lgan qator madonnalar obrazini yaratdi va tezda yuqori Uyg'onish davrining etuk ijodkorlaridan biriga aylandi.

XVI asr o'rtalarida Fransiya va Ispaniyaning Italiyani bosib olish uchun olib borgan harbiy harakatlari Ispaniya g'alabasi bilan tugadi. Italiyaning ko'pgina

shaharlari uning tasarrufiga o'tdi. XVII asrda Italiya iqtisodiy va siyosiy jihatdan tarqoq mamlakat edi. Biroq undagi xukmron tabaqa vakillari chet el bosqinchilari homiyligida dabdabali hayot kechirish, serhasham, serjilo binolar, saroy va qasrlar qurish, tantanali karnavallar o'tkazish orqali jamiyatdagi kamchiliklarni yashirishga intildilar. Ular davlat hamon avvalgidek qudratli, xalq tinch, ozod va shodu-xurramlikda hayot kechirmoqda, degan fikrni uyg'otishga harakat qildilar. San'at vositalari orqali o'z ob ro'larini oshirishga intildilar. Ular cherkov binolari, saroylar, shahardan tashqarida serjilo va serhasham villalar qurdilar. Bu qurilishlar, ayniqsa, katolitsizm markazi bo'lgan Vatikanda serhasham bo'ldi. Papa davlati hasham uchun mablag'ni ayamadi.

Siyosiy jihatdan tarqoq va qaram, iqtisodiy jihatdan qashshoq Italiya XVII-XVIII asr mobaynida Yevropadagi muhim markaz sifatida dong chiqardi. Bu yerda shakllangan va rivojlangan ko'plab badiiy-uslubiy yo'nalishlar Italiyadan tashqarida ham shuhrat qozondi. Rim esa Yevropada badiiy hayotning muhim markazi, baynalminal internatsional akademiya rolini o'ynadi. Antik va Renessans durdonalarini saqlab kelayotgan Rimda kuxna va yangi san'at aralashib, maxalliy va chet el san'ati an'analari ta'sirida o'ziga xos yangi san'at yuzaga keldi. Me'morlikda hajm jihatidan katta, shakl jihatidan serjilo va ko'rkam binolar yaratildi. Interyerlar bezakka boyligi, san'at sintezining nozik ko'rinishi bilan o'ziga xoslik kasb etdi. Qurilgan binolar ko'p hollarda gumbazli bo'ldi. Me'morlikda, asosan, barokko uslubi yetakchi o'rinni egalladi. XVIII asr o'rtalarida ayrim ijodkorlar asarlarida klassitsizm tamoyillari sezilsa ham, lekin yetakchi emas edi. Italiya me'morlari shahar ko'cha va maydonlarini qayta rejalashtirish asosida ularga o'rta asr shahar ko'rinishiga xos tugallik va ko'rkamlik kiritdilar. Yangi qurilgan favvora, yodgorlik va zinalar shahar maydonlari badiiyligi va emotsionalligini oshirdi. Shahar tashqarisidagi qurilmalarda tevarak-atrof relyefi hisobga olinib, majmualar yaratildi. Tepalik va soyliklarga haykaltaroshlik hamda amaliy san'at asarlari o'rnatilib yagona

me'morlik majmuasi vujudga keltirildi. Barokko me'morligida bino old tomoniga alohida e'tibor beriladi va uning dekorativ jihatdan ta'sirchan bo'lishi hisobga olinadi. **Rimdagi Del Jezu cherkovi** barokko namunasidir. **(Rasm.) Rimdagi Del Jezu cherkovi** uni me'mor **Jakomo da Vinyola** (1507-1573) boshlagan edi. Uning vafotidan keyin shogirdi Jakomo della Porta bu ishni tugatgan. Qo'sh plyastr, valyuta, favvora va boshqa qator dekorativ bezaklar va hajmlar binoning old tomoniga o'ziga xoslik baxsh etgan.

San-Karlo cherkovi ham barokko uslubining o'ziga xos jihatlarini namoyon etadi. Bu binoda ham yuqoridagidek bezaklar mavjud. Yarim aylana, oval, yarim ustun va relyeflar bino yuzasidagi nur-soya o'yinini kuchaytirib, uning yanada ko'rkam bo'lishini ta'minlagan.

(Rasm.) San-Karlo cherkovi .Bu cherkov binosi muallifi, barokko uslubining yirik namoyandasi me'mor **Francesko Borrominidir** (1599-1667). U o'z ijodida dekorativ bezaklardan keng foydalanadi. Ba'zida xatto meyoridan oshirib ham yuboradi. Bu esa u yaratgan asarlardagi yaxlitlikka salbiy ta'sir qiladi. Me'mor interrlarning badiiy yechimida ham shunday dekorativ bezak va haykallardan keng foydalanadi.

Jovanni Lorenzo Bernini(1598-1680). Barokko san'atining yirik vakili, me'mor va haykaltarosh Bernini Neapol shahrida tug'ildi. Shu yerda otasidan san'at sirlarini o'rgandi. 9 yoshida marmarda odam boshi haykalini ishlab, ko'pchilikni hayratlantirdi. 25 yoshda esa katolik Rimning mahobatli binosi avliyo Petr ibodatxonasining bosh me'mori darajasiga ko'tarildi. U ko'plab me'morlik va haykaltaroshlik asarlari yaratdi. Rassomlik va san'at nazariyasi bo'yicha tadqiqodlar yozdi. Me'morlik loyihalari, ibodatxona va saroylar, qabrtosh yodgorliklari ishladi. Bernini haykaltarosh sifatida ayniqsa mashhur bo'lib, barokko haykaltaroshligining tipik vakilidir. Bernini nodir portret va ta'sirchan ruhiy kompozitsiyalar yaratdi va bezash ishlarida qatnashdi. Rimdagi avliyo Petr soborining oldidagi katta maydon va uni o'rab turgan ustunlar qatori Bernining

shoh asaridir. Me'mor bu asari bilan avliyo Petr sobori qurilishiga yakun yasadi sh yagona yirik mahobatli me'morlik majmuasini yaratdi. XIV asrda qurila boshlangan. Uni qurishda Modern, Bramante, Mikelandjelo ishtirok etishgan. Bernini ana shu mashhur ibodatxona old tomonida favvora va obeliskli maydon yaratib, uni ustunlar qatori bilan ulug'vorlashtirdi. Natijada, sobor ko'rinishidagi tantanavorlik ortdi. Bu maydondan ibodatxona yaxlit va ulug'vor bo'lib ko'rinadi. Ibodatxonaning ikki tomonidan tomoshabinga qarab kelayotgan ustunlar qatori keluvchilarni "go'yo quchog'ini ochib" (L.Bernini) kutib olayotgandek bo'ladi. Maydon badiiy plastik-vizual tashkil etilishi, ayniqsa, e'tiborga molik. Maydon trapetsiya va ellipsimon maydonchalardan tashkil topgan. Bu ikki maydonchada idrok etilganda gorizontallikdagi trapetsiya va ellips go'yo va aylana bo'lib ko'rinadi. Bundan maydon hajmi kattalashayotgandek tuyuladi. Bernini bunday uslubdan o'z ijodida Vatikandagi qirol saroyi asosiy zinasida ham foydalangan. Uning orqa planidagi ustunlar oralig'i va zina kengligi biroz qisqargan holda ishlanib, uning fazoviy uzunligini oshirishga, zinani o'z o'lchamiga nisbatan yanada kattaroq bo'lib ko'rinadigan bo'lishiga erishgan. Bernini fuqaro me'morligida ham samarali mehnat qildi. Uning Rimdagi Sant-Andrea del Kvirinale, Barberini palatssiosi mashhurdir. Bernining dekoratorlik san'ati Avliyo Pyotr ibodatxonasining ichki interyerlarining ichki interyerlarida o'z ifodasini topgan.

Bernini XVII asr Italiya haykaltaroshligining yirik vakili va novatori edi. Uning "David", "Avliyo Tereza jazavasi", "Appalon va Dafna" asarlari, ayniqsa, mashhurdir.

Jumladan, David haykalida Davidning jangga kirib, qo'lidagi toshni dushmanga otish oldidagi vajohati juda hayotiy tasvirlangan. Davidning keskin burilgan gavdasi, tarang tortilgan mushaklari, qattiq qisilgan labi, to'zib ketgan sochi va bir nuqtaga tikilgan ko'zlarida uning ruhiy holati aks etgan. "Avliyo Tereza jazavasi" kompozitsiyasi ham ta'sirchan. Tereza VI asrda yashagan real tarixiy shaxs bo'lib,

u keyinchalik cherkov tomonidan avliyolar qatoriga kiritilgan. Rivoyatlarga ko'ra, Tereza tush ko'rganligi va tushida odam qiyofasidagi go'zal farishta kelib, uning yuragiga oltin kamon o'q bilan yuragidan urganida "oromli azob" olganligini yozib qoldirgan. Kompozitsiyada Terezaning tush ko'rayotgan paytida, farishta uni oltin o'q otmoqchi bo'lib turganligi tasvirlangan. Bu kompozitsiya Rimdagi Santa Mariya della Viktoriya cherkovi mehrobiga o'rnatilganyu bernini portret san'atida ham novator ijodkor edi. Uning portretlarida tasvirlanuvchining harakteri nihoyatda ta'sirchan ifoda etilgan. Uning portretlarida tasvirlanuvchining harakteri nihoyatda ta'sirchan ifoda etilgan. Uning yaratgan portretlari borokko uslubida ishlangan haykaltaroshlar uchun taqlid maktabi vazifasini bajargan. Bernini o'z ijodida borokko yo'nalishining o'ziga xos hamma xususiyatlarini namoyon etdi. Voqelikni real talqin etish, uning dekorativ jahatlarini his etish Bernini ishlariga betakror joziba bahsh etgan. Bernini yaratgan **Kardinal Borgez haykali** barokko san'atining yuksak namunasidir. Unda plastik tarzda ayrim shakllarini bo'rttirish hisobiga ta'sirchanlikka erishilgan. Marmar, bronzada yuksak mahorat bilan ishlashi uning asarlaridagi o'ziga xoslikni yanada oshirgan. San'atkor ijodining bu kabi jihatlarini uning asarlariga qiziqish ortishiga, uning Italiyadan tashqarida ham shuhrat qozonishiga sabab bo'ldi.

Italiya san'atida XVII asrda rangtasvir ham borokko uslubida rivojlanib, u XVI asr ohiri XVII asrda mavjud bo'lgan manyerizmga qarshi kurashda yuzaga keldi va Bolonye akademizmi hamda karavajizm yo'nalishida namoyon bo'ldi. Ikkisida ham borokkoga xos xususiyatlar dramatiklikka qiziqish, emotsional, his-hayajon tili bilan gapirish, dinamik kompozitsiya, nur-soya qarama-qarshiligidan keng foydalanish mavjud. Lekin mazkur yo'nalishlar o'ziga xos uslubi bilan birbiridan ajralib turadi. Masalan, Bolonye akademizmi naturani o'rganish hamda uni antik va Renessans bilan solishtirish va ular yaratgan kanonlarga o'xshashiga asoslanadi. Karavajistlar ijodida esa realistik jihat kuchli bo'lib, ular naturani o'rganadilar. Ular naturaning tub mohiyatini aniq ko'rsatishga intiladilar.

Mifologik va diniy mavzularni oddiy xalq hayoti voqeligida, undagi obrazlarni esa oddiy kundalik turmushida uchraydigan kishilar obraziga o'xshatishga harakat qiladilar. Nur, soya imkoniyatlaridan unumli foydalanib, asarning emotsional jihatini oshiradilar. Italiya san'atida borokko uslubi, ayniqsa, mahobatli dekorativ rangtasvirda sezilarli bo'ldi. Saroy va cherkov binolari devorlari serharakat, ko'p figurali, murakkab rakursli yorqin bo'yoqlarda ishlangan mifologik va diniy mavzudagi rasmlar bilan bezatildi. Ayniqsa, shiplarga ishlangan rasmlar o'zining nihoyatda dinamik va hayajonli kompozitsiyalari bilan kishini hayratlantiradi. Rasmlardagi fazoviy kenglik va cheksizlik, undagi aks etgan voqealar asarga dinamik harakat baxsh etadi.

Pyetro da Kartona (1596-1669) o'z davrining mashhur rassom va me'morlaridan biridir. Uning ijodida Italiyada rangtasivriga xos borokko namoyon bo'lgan. Uning Rimdagi palatssiosi shipiga ishlangan rasmlari nihoyatda ta'sirchan va serbezakdir. Rassom o'z asarlarida perspektivaning illyuzion imkoniyatlari va fazoviy kenglik, nur-soyaning kuchidan unumli foydalanadi. Shu jihatdan, u keyinchalik Yevropa mahobatli-dekorativ rangtasviriga sezilarli ta'sir o'tkazadi.

Shuni aytish kerakki, borokko asarlari tashqi tomonidan qanchalik ta'sirchan, dinamik bo'lmasin, ularda ta'sirlangan obrazlardagi ichki tug'yon sust ekanini qayd etmay bo'lmaydi.

Bolonye akademizmi. Italiyada tashkil etilgan badiiy maktablardan biri Bolonye akademiyasi yo'nalish tamoyillarini zida namoyon etadi. Bu maktabning asoschilari **aka-uka Karrachilar (Lodoviko, Agostino, Annibale)** bo'lib, ular shu yangi yo'nalish asoslarini ishlab chiqdilar. Ular XVI asr mumtoz san'atini va, ayni chog'da, naturani o'rganish zarurligini uqtirdilar. Ularning fikricha, natura (borliq) go'zallik qonunlari asosida ko'rib chiqilishi lozim edi. Ideal va go'zallik qonunlarini esa, ular yuqori Uyg'onish davri san'atida ko'rdilar. Ular, aniqrog'i, Lodoviko de-Karrachi 1585 yili Bolonyeda "Akademiya Inkamminata", ya'ni to'g'ri yo'lga qadam qo'yayotgan Akademiya, deb nomlangan o'quv dargohini

tashkil etdi. Lyudoviko to'g'ri o'qitish va tarbiyalash orqali rasm chizishga qobiliyati bo'lmagan qo'uvchini ham yaxshi rasm chizadigan mutaxassis qilib tarbiyalash mumkin, deb targ'ib qildi va o'zi shunga amal qildi. Bu o'quv yurti keyinchalik Italiyada va boshqa mamlakatlarda tashkil etilgan badiiy akademiyalarning ham ibtidosi bo'ldi. Akademiyada amaliy mashg'ulotlar bilan birga, nazariy fanlar yagona pedagogik tizim asosida olib borilar edi. O'quvchilar perspektiva, anatomiya, tarix, mifologiyani o'rganib, antik davr haykallaridan qalam va rangda nusxa olardilar. Bular so'zsiz, rassomlarning ixtisoslik mahoratini o'sishiga, realistik san'at taraqqiyotiga muhim xissa qo'shdi. Biroq ular merosga nisbatan idealistik munosabatda bo'ldilar. O'tmish madaniyati va san'ati erishgan yutuqlarni yetib bo'lmas namuna, deb bildilar. Bu esa o'tmishga taqlid qilish, ulardan nusxa ko'chirish yetakchi bo'lib qolishiga, realistik san'atning esa ikkinchi darajali bo'lib qolishiga sabab bo'ldi. Aka-uka Karrachilar mahobatli-dekorativ va dastgoh rangtasvirda samarali mehnat qildilar. Saroy va cherkovlarga diniy va mifologik mavzuda kompozitsiyalar ishladilar. Karrachilar orasida, ayniqsa, **Annibale Karrachi** (1560-1604) o'z iste'dodi bilan ajralib turgan. U novator san'atkor sifatida san'at tarixida iz qoldirgan. Uning ijodi Yevropa san'ati tarixida o'ziga xos o'rin tutadi. Annibale Karrachining manzara janridagi ijodi ham salmoqli. Mumtoz manzara san'ati uning nomi bilan chambarchas bog'liq. U bu san'atning asoschilaridan biri sanaladi. Aka-uka Karrachilar ijodi, ularning izlanishlari yosh ijodkorlarni o'ziga ergashtirdi. Ular orasida Gvido (1575-1642) ijodi alohida ajralib turadi. Karrachi asarlaridagi mumtoz manzaralarga xos hayotiylik va bevositalilik uning ijodidagi tashqi ta'sir va obrazlarning shartlilik bilan uyg'unlashadi. Shuni aytish kerakki, Italiyada XVII asrda rasmiy uslub qanchalik yetakchilik qilmasin, ko'pgina rassomlar hayotiy, realistik asarlar yaratishga harakat qildilar. Ularning bu intilishlari keyinchalik Yevropa realistik san'ati, jumladan, rangtasvirning rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Bunda, shubhasiz, **Mikelanjelo Merizi da Karavajo** (1573-1610) ijodi alohida o'rin

tutadi. “Karavajizm” deb nomlangan badiiy yo‘nalishga asos solgan bu san’atkor qisqa umr ko‘rganiga qaramay, yangi davr, realistik san’ati yetakchi tamoyillarini rivojlantirib, Yevropa realistik san’at taraqqiyotiga kuchli ta’sir o‘tkazadi. Italiya va boshqa mamlakatlarning ko‘pgina san’atkorlari ham uning izidan ergashdilar va “karavajistlar” degan nom oldilar. Barcha davrlar rassomlari ijodiga Karavajo asarlari samarali ta’sir ko‘rsatdi. Karavajizm Yevropa realistik san’ati taraqqiyotida muhim bosqich bo‘ldi. Lombardiyaning kichik karavajo shaharchasida me’mor oilasida dunyoga kelgan bu san’atkor, tasviriy san’at asoslarini dastlab Milanda o‘rgandi. U Shimoliy Italiya rassomlari ijodidan ta’sirlandi. Taxminan 1590 yillarda Rimga ko‘chib keldi. Bu yerda rassomlarga yordamchi bo‘lib, ishlab kun ko‘rdi. So‘ng o‘z asarlarini sotishga ham muvaffaq bo‘lib, yirik asarlar ishlay boshladi. U o‘z ijodida xalq hayotiga murojaat qildi, yoshlar, masharaboz va lo‘lilar hayotidan kompozitsiyalar yaratdi. Yevropa san’atida birinchi bo‘lib natyurmort (“Mevali savat”, 1596) janrida mustaqil asar yaratdi. Karavajoning dastlabki yirik asarlaridan biri “Lyutna chaluvchi” (1595) bo‘lib, u rassom ijodining o‘ziga xos jihatlarini, uning rangtasvir san’atidagi islohotlarini namoyon etadi. Bu islohotning mohiyati, avvalo, rassomning real borliqni haqiqiy san’at manbai deb bilish bilan bog‘liqdir. Lekin musavvir borliqni aynan ko‘chirmaydi, balki eng muhim harakterli tomonlarini bo‘rttirish, kuchaytirish hisobiga xodisalarni ta’sirli san’at shakli darajasiga ko‘taradi. Musavvirning har bir buyum xususiyati va fakturasini ishonarli tasvirlashi esa asarning ta’sirchanligini oshirib, uning mazmunini chuqurlashtiradi. Obrazdagi ruhiy xolat, chiziqlar plastikasining go‘zalligi, nur-soya o‘yinining birmuncha keskinligi asarni oddiy hayotdan ko‘chirma emasligini bildirib turadi. Rassom o‘z asarlarida nur-soya qarama-qarshiligiga ham e’tibor beradi. Asosiy obrazlarni yorug‘lantirish hisobiga birinchi planga chiqarish, orqqa planning ko‘pincha to‘q-qoramtir gammada hal etilishi kompozitsiyaga o‘ziga xos fazoviy kenglik beradi. Rassomning bu uslubi, keyinchalik Yevropa san’atida "yerto‘la rangtasviri" deb

nomlangan rangtasvirning rivojlanishiga zamin yaratdi. Rassom natyurmort va hayotiy-maishiy mavzularida qoʻllagan usullarini diniy mavzudagi kompozitsiyalar ishlashda ham qaytaradi. "Matveyning kasbi", "Apostol Matveyni azoblash", "Tobutga solish" kabi asarlarida ham shu xolni koʻrish mumkin. Rassom diniy voqealarni hayotiy voqea va xodisalarga, avliyolarni oddiy kishilarga oʻxshatib koʻrsatishga intiladi. Bu buyurtmachilar bilan kelishmovchilik kelib chiqishiga sabab boʻldi. Hatto, uni javobgarlikka tortishdi. "Apostol Matvey ixtirosi" (1559-1585), "Tobutga solish" (1601-1603) kabi yirik asarlari hayotiy voqea tasvirlanganday taasurot uygʻotadi. Nur-soya qarama -qarshiligi esa asardagi voqeani yanada boʻrttirib, fojiali, dramatik koʻrinish beradi. Odamlarning xatti-harakati, ruxiy holatlari kompozitsiyaning yanada hayoti va toʻlaqonli boʻlishini taʼminlaydi.

XVII asr davomida Italiya Gʻarbiy Yevropada yetakchi badiiy markaz boʻlib keldi. Bu yerda paydo boʻlgan koʻpgina yangi jarayonlar boshqa mamlakatlarga ham yoyildi. Karavajo va Balonye akademizmi, barokko uslubi koʻpgina ilgʻor ijodkorlarga samarali taʼsir qildi. Italiya rassomligida barokko uslubi **Domeniko Fetti va Salvator Roza** ijodida seziladi. Fetting yorqin rangdor asarlari, Rozaning mungli romantik asarlari shu oqimning soʻnggi , koʻrinishlarini namoyon etadi.

XVII asr soʻnggi choragidan boshlab, Italiya barokkosida dekorativlilik kuchaya bordi. Murakkab rakurslar va harakatlar sunʼiy koʻtarinkilik bilan yaratilgan asarlardan oʻz ustunligini koʻrsata boshladi. Hayotiy-realistik jarayonlar ayrim rassomlar ijodida namoyon boʻldi. Jumladan, **Aleksandr Manyaskoning** romantik rux bilan sugʻorilgan manzaralari, Juzeppe **Korespin**ing monumental va dastgoh rangtasvirlari buning yorqin misolidir.

XVIII asrga kelib, Italiya tashqi xurujlar taʼsirida zaiflashdi. Iqtisodiy jihatdan qashshoqlashib, uning koʻpgina shaharlari chet el bosqinchilari qoʻliga oʻtdi. Faqat Papa oblasti hamda Venetsiya respublikasi oʻz siyosiy mustqilligini

saqlab qola oldi. Rim va Venetsiyadagi badiiy hayot esa barokko uslubida ishlangan hashamatli me'morlik bino va majmualarida (M: Ispaniya zinasi, 1721), tantanavor serjilo xristian bazilikalarida, ajoyib favvoralarida, xis-hayajonga to'la devoriy va dastgoh suratlarida o'z ifodasini topdi. San'atkorlar Uyg'onish davri san'ati hamda barokko ustalarining ilg'or an'alarini davom ettirib, Italiya san'atining shuhratini oshirdilar. Bunda Venetsiya rassomlik maktabining roli, ayniqsa, katta bo'ldi. Bu maktab rassomlari o'z ijodlari bilan Yevropa san'ati taraqqiyotida ham muhim rol o'ynadilar.

Jovanni Battisto Tyepolo (1696-1770). Venetsiya rassomlik maktabining yutuqlari Tyepolo ijodida mujassamlashdi. U Italiya san'ati yutuqlarini ijodiy o'zlashtirib, barokko uslubini yanada mukammallashtirdi. Hayotlik vaqtidayoq katta shuhrat qozongan bu rassom juda ko'p mahobatli dekorativ va dastgoh suratlar yaratgan. Rassomning his-hayajonga to'la, serharakat kompozitsiyalari uning voqelikning illyuzion tasvirini ishlashdagi yuksak mahoratidan dalolat beradi. Kompozitsiyada odamlarning murakkab rakurslardagi holatlari, fazoviy bo'shliqning mahorat bilan tasvirlanishi asarning ta'sirchanligini oshirishda muhim rol o'uyaydi. Rassomning ilk asarlari o'zining nihoyatda boy fantaziyasi, besaranjom shakllar harakati, nur va soyaning keskin olinishi va dekorativ xususiyatlari bilan esda qoladi (masalan, Venetsiyadagi Dolfino saroyi devor va shiplariga ishlangan rasmlar turkumi). XVIII asr o'rtalaridan rassom dastxatida erkinlik va ekspressiya kuchayadi, rang tizimida nozik qochirimlar va o'yin paydo bo'ladi. Asarlari yorqinlashdi. Venetsiyadagi Jezuati va Skalsi cherkovlari shiftiga ishlangan rasmlar shu jihatdan e'tiborli. Tyepolo boshqa mamlakatlarda ham ishladi. Jumladan, Madridda ispan qiroli saroyini bezadi. Tyepolo dastto'x san'atida ham qator asarlar yaratdi. Ular ishlash texnikasining yuksakligi, obrazlarning his-hayajonga to'laligi bilan esda qoladi ("Amfitritazafari", "Munajjimlar ta'zimi" va boshq.).

XVIII asr Venetsiya san'atida atrof ko'rinishlarini aks ettiruvchi manzara

janri (veduta) keng yoyildi. Bu janrda ishlagan rassomlar shahar va uning atrofi ko'rinishini tipografik aniqlikda tasvirlashni o'zlarining asosiy maqsadlari deb bildilar. Ana shu janrda samarali ijod qilgan rassomlardan biri **Kanalletto** nomi bilan mashhur bo'lgan **Antonio Kanale** (1697-1768) hisoblanadi. U o'z asarlarida shahar kanal va maydonlarini, odamlarga to'la gandolalarni, Venetsiyaning o'ziga xos nam havosini, nurga to'la maydonlari, gandolalar harakati bilan jonlangan kanallarni nihoyatda aniq va shoirona tasvirladi. Shahar hayotidagi muhim voqealarni aks ettirdi (masalan, "Fransuz elchisining Venetsiyaga kelishi"). Bu yillarda manzara janrida rassom **Bernaro Belotto** (1720-1785) ham ijod qildi. U Saksoniya va Polshada ijod qildi. Bu rassom me'morlik majmualarini juda nozik his etgan holda, tabiat qo'ynida tasvirladi. XVIII asr Italiya san'atining so'ngi yirik vakili **Franchesko Gvardi** (1675-1785) bo'lib, u manzara, maishiy va tarixiy janrlarda ijod qildi. Lekin manzarachi rassom sifatida shuhrat qozondi. U ko'proq Konaletto ishlagan mavzularda rasm chizdi. Bu rasmlar hajm jihatidan katta bo'lmasa ham, lekin o'zining rang surtmalarini erkin ishlatishi, yorqin ranglari va nozik poetik kayfiyat ifoda qilishi bilan chuqur taassurot qoldiradi.

XVIII asrda Rim. Vezuviy vulqonining otilishi natijasida kul ostida qolib ketgan Pompey va Gerkulanum shaharlarining ochilishi antik san'at va madaniyatga qiziqishni oshirib yubordi.

Nemis san'atshunosi **Iogann Ioxim Vinkelman** (1717-1768)ning "Qadimgi san'at tarixi" kitobi bu qiziqishni yanada oshirdi. Arxeolog, graver va me'mor, qalamsuratlar ustasi Jovanni Battista Piranezi (1720-1778)ning gravyuralari ham yevropaliklarning antik san'at to'g'risidagi bilimlarini kengaytirdi. Natijada, Rim nafaqat Italiya, balki Yevropaning ham badiiy markaziga aylandi. Shu boisdan "Rim mukofoti" ni ta'sis etdilar. Rimda fransuz, nemis, daniya, rus va boshqa xalqlar rassomlari o'z malakalarini oshirdilar.

2.2. Mikelanjelo ijodi

XVI asr boshlariga kelib, Rim Italiyaning muhim siyosiy va madaniy markaziga aylana bordi. Uning mavqeini yanada orttirish maqsadida Rim papalari etuk san'atkorlarni shaharga taklif eta boshladilar. Shu davrda Mikelanjelo, Bramantelar qatori Rafael ham papalar diqqatini o'ziga tortdi va 1508 yili ularning taklifiga binoan, Rimga keldi, shu paytdan Rafael ijodining eng gullagan davri boshlandi va shu erda u o'zining eng etuk asarlarini yaratdi. Dastlab unga Vatikandagi papalar shaxsiy xonalarining devorlarini bezash topshirildi. Rafael bu suratlar ustida 1511 yilgacha mehnat qilib, uni muvaffaqiyatli bajardi. Undan xursand bo'lgan papalar unga yana xonalarni bezash va ularga devoriy suratlar ishlashni davom ettirishni topshirishdi. Bu ish ustida rassom 1517 yilgacha ishlab, o'z iste'dodini to'liq namoyon qildi. U ajoyib dekorator, kompozistiya ustasi sifatida o'zini ko'rsatdi. Bu devoriy suratlar mavzusi ko'p xollarda qadimgi davr voqealari, afsonalarga bag'ishlangan. Bu mavzular zamirida esa davr kishilariga ibrat bo'la oladigan voqealar yotar edi. Bu suratlar papalarning mamlakatni siyosiy jihatdan birlashtirish, ozodlik va mustaqillik uchun olib borilgan kurashini ko'rsatishi hamda yo'qolib borayotgan cherkov obro'sini qayta tiklashi va mustaxkamlashi zarur edi.

Uyg'onish davrining gumanistik g'oyalari, ularning antik dunyoga bo'lgan zo'r e'tiqodlari «Afina maktabi» devoriy suratlarida o'z ifodasini topdi. Surat shu davr kishilarining yorqin kelajak xaqidagi o'y va tasavvurlarini namoyon qiladi. Markazda idealistik va materialistik filosofiyaning otalari Platon va Aristotel tasvirlangan. Past tomonda, chapdagi zina oldida shogirdlari qurshovida Pifagor, o'ng tomonda esa Evklid va teparoqda Rafael o'zini tasvirlaydi. Hammasining xatti-harakatida yuksak ko'tarinkilik va yaratuvchilik kayfiyati xukm suradi. Rafael ishlagan devoriy suratlar ichida «Iliodorning quvilishi» kompozistiyasi ham mashhurdir. Bu suratda ibodatxona

boyliklarini o'g'irlamoqchi bo'lgan suriyalik harbiy qo'mondonni g'oyibdan paydo bo'lgan otliq va farishtalar jazolab, xdydayotgan payti tasvirlangan. Bu syujetning tanlanishi tasodifiy emas, albatta. Italiyada og'ir kunlar boshlangan bir paytda cherkov boyliklarini qo'lda qurol ushlab ximoya qilishga majbur edi. Bu tasvir ham shu cherkov boyliklariga ko'z olaytirmaslikka chaqiruvchi asar sifatida yaratilgan bo'lib, shuning oldini olish va kimda-kim unga ko'z olaytirsam, qattiq jazolanishini eslatib turishga mo'ljallangan edi. Rafael devoriy suratlar ishlashdan tashqari, maxobatli-dekorativ rasmlar ustida ham ijod qildi, gilamlar uchun kartonlar ishladi. Bulardan, ayniqsa, apostol Pyotr tarixiga ishlangan suratlar mashhurdir. Rassom dastgoh rang-tasvirida etuk portretlar yaratdi. Bulardan tashqari, Rafael Rimda bo'lgan kezlarida o'zining eng mashhur asari «Sikst madonnasi» (1515-1519) asarini yaratdi. Bu surat avliyo Sikst cherkovi uchun mo'ljallangan edi. Asar uchun afsonaviy voqea asos bo'lgan. Afsonalarga ko'ra, Bibi Maryam o'z farzandini dushmanga topshirib, erdagi odamlarni azob-uqubatdan kutqarishi mumkin bo'lgan. Rassom kompozitsiyasida Bibi Maryamning o'z farzandini dushman qo'lga topshirish uchun ketayotgan payti tasvirlangan. Go'yo parda ochilib, bola ko'targan Bibi Maryamning oyoqlarini bulutlarga qo'yib, pastga tushib kelayotgani, pastrokda, uning ikki tomonida avliyo Sikst va avliyo Varvara, pastda xayol surib o'tirgan farishtalar tasvirlangan. Ularning nigohlari cheksizlikka qaratilgan. Bu asarda rassom o'z manfaatini xalq manfaatidan ustun qo'yadigan ideal inson obrazini yaratib, o'z davri kishilarining gumanistik ideallarini poetik talqin eta oldi. Asarning yuksak mahorat bilan ishlanishi, rang garmoniyasidagi tugallik uning emostional kuchini oshiradi.

Rafael ijodining so'nggi yillari rang-barang. U rassomlik bilan birga, me'mor sifatida ham ijod qildi. U Bramante vafotidan keyin Avliyo Pyotr soborini qurish ishiga rahbarlik qildi, villa va cherkovlar uchun karton va chizmalar ishladi, qalamda suratlar chizdi. Rafael 37 yoshida vafot etdi. Uning

boshlagan ishlarini shogirdlari davom ettirdi. Lekin ular o'z asarlarida ustozlari ijodiga xos bo'lgan chuqur g'oyaviy gumanistik mazmunni ocha olmadilar.

Mikelanjelo Buonarotti (1475-1564). Uyg'onish davri kishilarining ideal inson to'g'risidagi tushunchalari yuqori Uyg'onish davrining buyuk ijodkori Mikelanjelo ijodida o'zining to'liq va atroflicha ifodasini topdi. Bu san'atkor qahramonlari insondagi butun ijobiy hislatlarni fazilatiga singdirib yuborgan kishilardir. U san'atning ko'p turlarida, jumladan, haykaltaroshlik, memorlik, rassomlikda ijod qildi. Lekin u qaysi san'at turida ijod etmasin, shakliy jihatdan tugal, g'oyaviy jihatdan chuqur, badiiy jihatdan go'zal asarlar yarata oldi.

Mikelanjelo 70 yillik ijodiy faoliyati davomida san'at maydonida davr ruhi bilan hamnafas asarlar yaratdi. Shu boisdan ham u asarlarida davrning yuksak ideallari bilan bir qatorda, bu ideallarning inqirozga yuz tuta boshlaganini ham juda nozik his etgan holda ko'rsata oldi. Uyg'onish davri tushkunligini birinchi bo'lib, achinish va iztirob bilan etirof etdi.

Mikelanjelo 1475 yili 6 martda, Florensiya yaqinidagi Kapreze shaharchasida dunyoga keldi. Uning yoshligi Florensiyada o'tdi. Otasining qarshiligiga qaramay, o'zini san'atga bag'ishlashga qaror qildi. 13 yoshida u florensiyalik Domeniko Girlayadiyo ustaxonasiga o'qishga kirdi. Uning qobiliyati va yuksak istedodi Florensiya hokimi Lorensto Medichini o'ziga tortdi. Uni medichilar saroyi qoshidagi badiiy maktabga talabalikka olishdi. Bu erda Mikelanjelo Donatello shogirdlaridan biri qo'lida ikki yil o'z bilim va mahoratini oshirdi. Saroyda yosh rassom antik dunyo san'ati namunalari bilan tanishdi, ulardan ko'chirmalar ishladi. Protoressans va ilk Uyg'onish davri san'atkorlari bilan, ayniqsa, qahramonlik va tantanavorlik ruhi bilan sug'orilgan Jotto va Mazachcho devoriy suratlari bilan, Yakopo della Kverchi haykallari bilan qiziqdi, ularni o'rgandi. Saroyda bo'lib turadigan mashhur shoir, rassom, haykaltaroshlar,

filosof va me'morlar yig'inlaridan voqif bo'lgan yosh san'atkor dunyoqarashi rivojlandi.

«Zina oldidagi madonna» (1492), «Kentavrlar janggi» (1494) san'atkorning marmardan ishlangan dastlabki mustaqil asarlaridir. 90-yillarning boshlarida yaratilgan bu bo'rtma tasvir (relef) o'zining yuksak mahorat bilan ishlanganligi, tasvirlangan obrazning to'laqonligi, san'atkor tanlagan badiiy shakllarning rang-barangligi, ifodaliligi va kompozistiyasining dinamikasi bilan kishida katta taassurot qoldiradi. Bu asarlarda san'atkor ijodiga antik san'atning ta'siri kuchli bo'lganligi seziladi. Bu ta'sir, ayniqsa, uning Italiya shaharlari (Bolonya, Rim) bo'ylab qilgan sayohati davrida yaratgan «Vakx haykali» (1498) da ham seziladi. Rimda yaratilgan «Peta» («Isoga aza tutish», 1498-1501) haykali Mikelanjeloga haqiqiy shuhrat keltirdi. Isoga motam tutish mavzusiga bag'ishlangan bu fojiali dramatik kompozistiyani san'atkor chuqur psixologik rejada hal etib, uni haqiqiy insonning his-tuyg'u va kechinmalari bilan to'ldirdi. Onaning cheksiz iztirob va qayg'usini uning quyi egilgan boshi, chap qo'lining ixtiyorsiz harakati hamda xomush va mungli termulshii orqali ochishga muvassar bo'lgan. Mikelanjelo Isoning onasini yosh qilib tasvirlaydi. Bu bilan rassom fojiali mavzuni optimistik ruhda tasvirlashga, qiyofaga ruhiy poklik va go'zallik kiritishga, gumanistnk ideallarning g'alaba kilishiga ishonch pyhi bilan qarashga harakat qilganligi ko'rinadi.

Mikelanjelo 1501 yili Florenstiyaga qaytadi. Shu erda shahar hokimiyatining buyurtmasi bilan yaxlit marmardan o'zining mashhur «Dovud» haykali ustida ish boshlaydi va nihoyat, 1504 yili bu haykal Florenstiyaning bosh maydoniga o'rnatiladi. Zamondoshlari bu haykalni yuqori baholadilar va uni Florenstiya respublikasining himoyachisi, erkinlik va ozodlik ramzi sifatida qabul qildilap. Haqiqatda ham, afsonaviy qahramon buyuk san'atkor uchun davr idealini ifodalashga juda qo'l keldi. Bu obrazga o'z vaqtida Donatello, Verokkio murojaat qilishgan edi. Lekin Mikelanjelo o'z qahramonining g'alabadan keyingi paytini

emas, balki jangga tayyor turgan paytdagi holatini tasvirlash orqali uning gumanistik harakterini yanada kuchaytirdi. San'atkor san'at tarixida birinchi bo'lib, butun kuchi bilan dushman hamlasiga qaqshatkich zarba berishga tayyor turgan jasoratli, qudratli inson obrazini yaratish orqali o'z baxt-saodati uchun kurasha oladigan, o'z kuch va imkoniyatlarini to'g'ri baholay oladigan inson qiyofasini yaratishga muyassar bo'ldi.

Mikelanjelo o'zini haykaltarosh deb xisoblar edi. Lekin rangtasvir san'atida ham u o'z zamondoshlaridan o'zib ketdi va uning haqiqiy nodir namunalarini yaratib qoldirdi. Bu san'atda ham rassomning bosh qahramoni insondir. Uning jismoniy qudrati, aqliy barkamolligi va ma'naviy go'zalligi san'atkor ijodining bosh yo'nalishini belgilaydi. Bu g'oyani ifodalashda esa san'atkor o'ziga xos mahobatli badiiy tildan juda o'rinli foydalanadi. 1503-1504 yillarda yaratgan yagona dastgoh asari bo'lgan «Muqaddas oila» (Donni madonnasi) kompozitsiyasida ishlatilgan yaxlit shakllar, obrazlarning haykaltarosh asari singari hajmli talqin etilishi uning mazmunini yanada chuqurlashishi va ta'sirchanligining or-tishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bibi Maryam, Yusuf va Iso obrazlari ulug' siymolar darajasiga ko'tarilgan

Mikelanjelo Florensiyada bo'lgan kezlarida u «Kashinadagi jang» mahobatli rangtasvir ustida ham ish olib bordi, uning kartonini ishladi. Lekin 1505 yili papa Yuliy II taklifiga binoan, Rimga ko'chib ketadi va bu ish oxiriga etkazilmay qoladi. Rimda Mikelanjelo Yuliy II buyurtmasiga binoan, uning maqbarasi loyihasi ustida ish boshlab yuboradi. Xaybatli mavzoley loyihisini tugatib, uni qirqqa yaqin haykal va bo'rtma tasvirlar bilan bezatmokchi bo'ladi. O'z rejalarini amalga oshirish va zarur materiallarni topish bilan band bo'lib yurgan kezlarida Yuliy II maqbara qurdirish fikridan qaytadi. Buni bilgan Mikelanjelo achchiqlanib, Florensiyaga qaytib ketadi. Yuliy II bir necha bor undan Rimga qaytishni iltimos qiladi, lekin Mikelanjelo unga rad javobini beradi. Faqat Florensiya hukumati Rim bilan aloqasini buzmaslik maqsadida

Mikelandjoni Rimga qaytib borishga ko'ndiradi. 1508 yili Yuliy II Mikelandjeloga Vatikandagi Sikst kapellasining shifti va devorlarini suratlar bilan bezab berishni taklif qiladi. Mikelandjelo bu taklifni istar-istamas qabul qiladi. Bu buyurtma ustida san'atkor to'rt yil tinimsiz mehnat qiladi (1508-1512). Dastlab shu yuzalarga mos tushadigan kompozistiyalar ustida fikr yuritadi, devoriy surat texnologiyasi bilan tanishadi, «al-fresko»ning murakkab texnikasini o'rganadi, juda katta hajmda qalam-suratlar hamda kartonlar ishlaydi. Shundan so'ng devor va shift yuzalariga rasm chizishga kirishadi. O'z qo'li bilan 600 kv m ga yaqin yuzani suratlar bilan bezab chiqadi. Turli murakkab holatda turgan odamlar gavdasi tasviri shu yuzaga ishlangan suratlar kompozistiyasini tashkil etdi. Mikelandjelo surat kompozistiyasini xonaning ichki harakter, darcha, eshik hamda xonadagi boshqa me'morlik detallari va hajmlarini xisobga olgan holda tuzadi. Xonaning asosiy devorlariga dunyoning yaratilishi, odamning paydo bo'lishini tasvirlovchi voqealar ishlangan. Shiftga ishlangan suratlarining mazmuni eshik tomonidan boshlanib, mehrob tomon rivojlanib boradi. Unda insonning ma'naviy barkamollikka erishish bosqichlari ifodalandi. Kapelladagi suratlarining umumiy g'oyasi dinni targ'ib etish emas, balki inson kuch-qudratini, aql-zakovatini ulug'lash, uning jismoniy go'zalligini kuylashga qaratilgan. Hayot tantanasini ulug'lovchi bu asarda mungli ohaglar ham seziladi, ayrim obrazlarda iztirob chekish, dunyoga ishonchsizlik bilan qarash, pessimistik kayfiyatlar namoyon bo'la boshlaydi. Bu, albatta, shu davr Italiya hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, eng avvalo, gumanistik ideallarning inqirozi bilan bog'liqdir. Bu xususiyat, ayniqsa, Italiyaga chet el bosqinchilarining kirib kelishi bilan yanada yaqqol namoyon bo'la boshlaydi. Uning 1513-1516 yillarda ishlagan «Zanjirband qul», «O'layotgan qul», «Ibrohim» haykallarida shu pessimistik kayfiyat seziladi. Bu haykallar Yuliy II vafotidan so'ng uning vorislari tomonidan berilgan buyurtma edi. Papa maqbarasiga qo'yish uchun mo'ljallangan bu haykallarda Uyg'onish davri ideallarining barbod bo'layotganligi, inson kurashda o'zini ojiz seza boshlayotgani

ishonarli talqin etiladi va bu g'oya Mikelanjelo asarlarining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Mikelanjeloning yirik me'morlik asarlaridan biri Florenstiyadagi San Lorensto cherkoviga qo'shimcha qilib qurilgan medichilar kapellasi, unga ishlangan qabr toshi va haykallardir. Kapellaning uncha katta bo'lmagan, kvadrat shaklidagi xonasining oq devorlari to'q kul rang marmardan ishlangan pilyastrlar bilan ajratilgan. Urbinskiy va Juliano Nemurskiylarning sag'analari joylashgan. Ularning haykallari esa shu sag'analarning tepa qismiga ishlangan tokchalarga kuyilgan. Bu tokchalar oldida chikyab turgan sarkofaglarining (kdimgi tosh tobut) tepa tomonlariga zabardast yalangoch erkak va ayol haykallari, tong, kech, kun va tun allegoriyasi ishlangan. Ular sarkofagning yarim aylana shaklidagi tepa kismiga joylashtirilgan bo'lib, go'yo shu qiyalikdan surilib, pastga tushib ketayotganga uxshaydi. Haykaltarosh kompozistiyaning shunday echish orqali bezovtalik, notinchlik kayfiyatini ko'rsatadi. Vaqtning beomon va o'tkinchi ekanligini va inson hayotining abadiy emasligini ta'kidlaydi.

1534 yili Mikelanjelo butunlay Rimga ko'chib keladi. Papa Pavel III buyurtmasi sikst kapellasining mehrob devoriga «Kiyomat qoyim» (1534-1514) mavzusida rasm ishlaydi. Kompozistiya markazida Isoning o'z gunoxkor bandalarini so'roq qilayotgan payti tasvirlangan. Mikelanjeloning Rimda ishlagan haykaltaroshlik asarlari sanokli. Ularda haykaltaroshning birmuncha mungli kayfiyati o'z ifodasini topgan. Ijodkorning me'morlik iste'dodi Rimda birmuncha rivojlandi. Bu erda u avliyo Pyotr soborini qurishda, shahar ansambllarining rekonstruktsiyasida kdnashdi. Mikelanjelo ijodi o'z davrida va o'zidan keyingi davr san'atkorlariga kuchli ta'sir qildi.

2.3. Yakopo Sansovino Venetsiyada olib borilgan ijodi

Me'mor Yakopo Sansovino (1486-1570) tomonidan Venetsiyada olib borilgan rekonstruktsiya ishlari shahar qiyofasini o'zgartirib yubordi va suv kanallari bilan o'zviy bog'ladi. Nihoyatda jimjimador va nafis avliyo *Mark* (San Marko) kutubxonasi esa o'ziga yaqin bo'lgan maydonni yagona ansamblga birlashtirdi. O'ng'iroqxona, cherkov binolari shaharga qaytarilmas qiyofa baxsh etdi. Lekin Uyg'onish davrida Venetsiya, ayniqsa, rangtasvir borasida yuksaklikka erishdi, o'zining boy va rangdor koloriti bilan mashhur bo'ldi. Ana shu san'atning shakllanishi va rivojlanishida Belinilar oilasi muhim o'rinni egalladi. Bu oilaning kattasi Yakopo Bellini (1400-1470) tomonidan boshlangan yo'nalish voqelikni tasvirlashda perspektiva imkoniyatlaridan foydalanish, odam qomatini ishlashda anatomik aniqlikka e'tibor berish uning ikki o'g'li Jentile va Jovanni ijodida davom ettirildi. Ayniqsa, uning kichik o'g'li Jovanni Bellini (1430-1516) ijodida Venetsiya san'atida Uyg'onish davri an'analarni o'zining tugallangan ko'rinishiga erishdi. Jovanni Bellini moybo'yoq texnikasidan foydalanib, ranglar jarangdorligiga erishdi. XVI asr Venetsiyalik rassomlarning kolorit sohasidagi katta yutuklariga asos yaratdi. U o'z asarlari bilan yuqori Uyg'onish davri san'atining shakllanishiga katta ta'sir qildi va bu shakllanishda uning shogirdlari Jorjone va Tistian muhim o'rinni egalladi.

Inson jismoniy go'zalligiga maftun bo'lish, uning tasvirini ishlashga intilish Venetsiyalik rassomlar ijodida aloxdda o'rin tutadi. Gumanistik prinsiplarga sodiq bo'lish, inson irodasi va imkoniyatlariga ishonish etuk rassomlar ijodining asosini tashkil etdi. Venetsiya rangtasviridagi ana shu xususiyatlar dastlab Jorjone deb nom olgan Jorjo Barbarelli Kastel-franko (1476-1510) ijodida ko'rini boshladi. Uning «*Yudif*» (1502), «*Uxlayotgan Venera*» (1508-1510) kabi mashhur asarlari voqelikni poetik talqin etish, chuqur lirik his-tuyg'uning mo'lligi bilan harakterlanadi. Rassom o'z qaxramonlarini ko'p holda

tabiat qo'ynida tasvirlaydiki, sokin, osoyishta tabiat ko'rinishi uning asarlariga poetik ruh kiritib, ta'sirchanligini oshiradi. Jorjone o'z ustози Bellining moybo'yoqda rasm ishlash texnikasini yanada boyitdi, hajm, nur, havo va ranglardagi jozibani moybo'yoqda zo'r mahorat bilan ifodaladi. Jumladan, «Uxlayotgan Venera» asarida badan harorati ranglar jozibasi va tovlanishi orqali ishonarli talqin etilgan (15-rangln rasm). Jorjone ijodi gullagan bir davrda hayotdan ko'z yumdi hatto, u o'zining «Uxlayotgan Venera» asarini tugatishga ham ulgurmadi.

.Uning manzara qismini, shuningdek, bir qator buyurtmalarni uning shogirdi Tistian Vechello (1487-90-1576) davom ettirdi va tugatdi. Tistian o'z ustози boshlagan ishni davom ettirib, uning yuksak mutahhislik mahorati, rangning emostional tomonidan to'liq foydalanishga intilishini chuqur gumanistik g'oyalar bilan to'ldirib, Venetsiya yuqori Uyg'onish davri san'atining etuk namunalarini yaratdi. Tistianning ilk asarlarida voqelikni xotirjamlik bilan idrok etishda, tanlagan tiplarining ko'rinishi hamda mavzusida Jorjonening ta'siri seziladi. Lekin Tistian obrazlari o'zining to'laqonliligi, xushchakchakligi va xissiyotliligi bilan farqlanib ham turadi. U o'z asarlarida ko'pincha qarama-qarshi harakterlarni, ularning ichki holati va kechinmalarini tasvirlaydi. Buni «*Erdagi va xayoliy muxabbat*» (1514), «*Kesari dinori*» (1516) kabi asarlarida ko'rish mumkin. Tistian ijodining gullagan davrida mehrob uchun bir qator suratlar ishladi, portretlar chizdi. Ularda voqelikni to'laqonli va atroflicha tasvirlashga intilish seziladi. Tasvirlanayotgan har bir aniq, tugal harakterni ko'rsatishga intilish uning asarlariga hayotiylik kiritadi. 1530-1540 yillarga kelib, rassom asarlaridagi xayajonli va dinamik kompozistiya urnini xotirjamlik, muvozanatli kompozistiyalar egallay boshladi. Rassomning diniy va mifologik mavzularda ishlagan rasmlarida ham bevosita shahar hayoti lavhalari, konkret tiplar tasviri kiritilgan.

Tistian butun ijodi davomida portret janrida ijod qildi. U o'z qahramonlarining harakterini ochishda tasvirlanuvchining xatti-harakati, o'zini tutishi, mimik holatiga e'tibor beradi. «+o' lqopli yigit portreti» (1520) da qisilgan lab, chaqnab turgan ko'z, oq va qora rangdagi kiyimlar konkret harakterni chuqurlashtirib, aniq maqsadga intiluvchi, o'z imkoniyat va qadrini bilgan ishbilarmon, ziyrak inson qiyofasini gavdalantiradi. «*Ippolito Riminaldi portreti*» (1540yil oxiri) da esa tasvirlanuvchi obrazning qarashida, oqargan yuzida uning ichki xissiyoti - ikkilanish va hayron bo'lish kayfiyati ochiladi

Tistianning «Papa Pavel III o'z jiyanlari bilan» (1545- 1546), «Karl V ning otda o'tirgan paytidagi portreti» (1548) asarlari ham o'zining realistik harakteri bilan qimmatlidir.

XVI asr o'rtalaridan boshlab, Venetsiya respublikasida inqirozning boshlanishi, feodal-katolik reakstiyaning kuchayishi rassom asarlariga ham ta'sir qila boshlaydi. Tistian endilikda odamlarning azob chekayotgan, qiynalayotgan paytlarini tasvirlayotgan asarlar («Avliyo Lavrentiyni qiynash», «*Tikanli chamber*», «*Avliyo Sebastyan*» va h. k.) yarata boshladi. Rassom ijodiy uslubida ham o'zgarishlar sodir bo'lib, ranglardagi yorqinlik va jilvadorlik o'rnini og'ir, mungli, qoramtir ranglar egalladi. Lekin rassom o'z asarlarida gumanistik ideallardan qaytmadi. U insonning imkoniyati, aql-zakovati, qudratiga ishonadi, umrining oxirigacha shular hakida asarlar yaratdi. XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Italiya san'ati va madaniyatidagi inqiroz kuchaygan davrlarda, Venetsiyaning ko'pgina rassomlari o'z ijodlarida Uyg'onish davri gumanistik tamoyillariga sodiq qoldilar. Hayotni to'laqonli va atroflicha tasvirlashga intilish ular ijodining asosini tashkil etdi.

Veroneze nomi bilan mashhur bo'lgan Paolo Kalyari (1528-1588). Tintoretto nomi bilan mashhur bo'lgan Yakopo Robustilar (1518-1594) shu davr rassomlari ichida alohida o'rinni egallaydi. Ular Venetsiya maktabi an'alarini rivojlantirgan holda, uni mazmunan boyitdilar.

XVI asr o'rtalarida mamlakatning iktisodiy va siyosiy jihatdan zaiflashishi so'nggi Uyg'onish davri me'morligida ham o'z ifodasini topdi. Yirik me'morlik kompozistiyalari urni davrning feodal restavratsiyasining jonlanishi bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy buyurtmalar kengroq egalladi. Villa palaststo kurilishi sohisida ko'zga ko'rinarli ishlar qilindi. Bog'-park me'morligi uslubi shakllandi. Past-balandlikka ega bo'lgan maydonda bog' yaratish Italiya park san'atining muhim shartlaridan hisoblanadi. Bu past-balandliklar bir-biri bilan murakkab zinalar orqali bog'lanadi. Tepalik va ularning yonbag'irlari esa turli dekorativ qurilmalar, g'or, suv kaskadlari, fontan, lodjiya haykallari hamda manzarali o'simliklar bilan bezatiladi. Parkning asosiy yo'li darvoza tomonga yunalgan. +olgan yo'l va zinalar ham shu tomonga yo'naltirilgan bo'lib, park kompozistiyasining tugal bo'lishini ta'minlagan.

Bu davrda me'morlikning nazariy masalalariga e'tibor berish, yaratilgan va yaratilayotgan binolarni ilmiy asoslashga intilish boshlandi, bir qator ilmiy asarlar yaratildi. XVI asr o'rtalaridan boshlab, Italiya shaharlarida paydo bo'la boshlagan maxsus o'quv yurtlari, akademiyalarning paydo bo'lishi va ularda me'morlikka oid ta'limlarning o'tilishi muhim voqea bo'ldi. Bularning hammasi keyingi Evropa me'morligi taraqqiyotida o'zining ta'sirini ko'rsatdi.

Jakomo Barostti da Vinola (1507-1573). Bu davrdagi me'morlik binolarida bir tomondan, qadimgi antika, ayniqsa, Rim me'morligi ta'siri sezilsa, ikkinchi tomondan, binolarning bezagiga ortiqcha e'tibor berila boshlanganligi ko'zga tashlanadi. Me'morlikdagi birinchi ko'rinish yirik Rim me'mori va nazariyotchisi Vinola ijodida namoyon bo'ldi. Vinola antika davri me'morligi nazariyotchisi Vitruviy asarlarini o'rganib, o'z davri qurilishlarini tartibga solish va uni ilmiy asosda yaratishga harakat qildi. Uning «Besh me'morlik orderlar qoidasi» (1562) risolasi davrning muhim qo'llanmasi sifatida keng yoyiladi. Vinolaning ilk ijodi Balonyada boshlandi. Shu erda va Rimda bir qator binolar qurdi. Papa Yuliy III villasi, yozgi uyi (kazino), oval rejasidagi gumbazli oratoriya

(xor aytish uchun mo'ljallangan bino) hamda ko'pgina fontanlar uning ijodiga mansubdir. Uning eng katta asarlaridan biri, kardinal Farneze uchun qurilgan beshqirrali, o'rtasida aylana shaklidagi xovlisi bo'lgan Kaprarola qasridir. Vinolaning cherkov me'morligi sohasida yaratgan binolari ichida Iso cherkovi (Il Jezu) mashhurdir. Bu bino keyingi cherkov kurilishi uchun asos bo'ldi. Bu binoda Vinola asosiy nefga e'tibor berib, uning yon tomonlarida uncha chuqur bo'lmagan kapellalar hamda nef va transepti kesishgan tepada gumbaz ishlaydi.

Andrea Palladio (1518-1580) ham so'nggi Uyg'onish davrining yirik me'mori va nazariyotchisidir. Uning 1570 yilda nashr etilgan «Me'morlik to'g'risida to'rt risola» kitobida antik me'morlik va orderlar sistemasi xaqida to'xtalib, ularni o'zgartirib bo'lmaydi, deb hisoblaydi. U o'z idealini antika me'morligida ko'rdi va shu idealni o'z ijodida qaytarishga harakat qildi. Me'mor bino uchun yaxlit, klassik normadagi shakllardan, kat'iy simmetriyadan foydalangani holda, ulardan dekorativ effekt topadi. U feodal saroylarini shahar uylariga aylantiradi. Uning qurgan binolari shahar ansamblining ajralmas elementiga, ko'chalarning ajralmas qismiga aylanadi. Palladioning Vichensti yaqinidagi Rotonda villasi hamda Venetsiyadagi San Jorjo Marjore cherkovi harakterli bo'lib, markazi qubballi kvadrat rejadagi bu bino yuqori stokol ustiga qurilgan va to'rt tomonida keng ayvonlar mavjud. Binoning ulug'vor va sipo ko'rinishi tabiat bilan garmonik uyg'unlashgan. Palladio qurgan binolarning ulug'vor ko'rinishi, nisbatlarining go'zalligi, ishlatilgan shakllarning ifodaliligi keyingi Evropa san'atida, ayniqsa, Angliya va Rossiya me'morligida klassistizm tamoyillarining shakllanishida muhim rol o'ynadi

German imperiyasi qo'shinlari tomonidan Rimning talanishi (1527), Florensiya respublikasining yiqilishi va mamlakatning yagona davlat bo'lib birlashishi mumkinligiga bo'lgan ishonchning yo'qolishi Italiya iqtisodiy va madaniy inqirozining boshlanishiga sabab bo'ldi. Gumanistik ideallar barbod bo'ldi va so'na boshladi. Uyg'onish davrining dunyoviy, hayotbaxsh san'ati va

madaniyati o'rnini mistik g'oyalarni ilgari suruvchi, tashqi jihatdan yaltiroq, lekin hayotdan, uning muammolaridan uzoq bo'lgan san'atning keng yoyilishiga olib keldi. San'at tarixida manerizm deb nom olgan bu badiny oqim o'zida Uyg'onish davri gumanistik g'oyalarining barbod bo'lganligidan dalolat beribgina qolmay, balki san'atkorlarning badiiy mahorat jixtdan ham orqaga keta boshlaganligini ko'rsatadi. Bu xol, Ayniqsa, rangtasvir san'atida yaqqol seziladi. Rassomlar yuqori Uyg'onish davri san'atkorlarining boqiylikni butun borligi bilan to'laqonli va real tasvirlash uslubidan qaytib, o'z asarida odam qomati, nisbatlarini buzib ko'rsata boshlaydilar, anatomik Aniqlikka e'tiborsizlik bilan qaraydilar. Rassomlar ba'zan o'z asarlarining emostional tomoni, chiziq va rang go'zalligiga e'tibor bergan holda, uning echimi, asl moxiyatini unutib qo'ydilar.

Manerizm oqimiga xos bo'lgan bu xususiyat dastlab XVI asrning 10-yillari so'nggida Florensiyada (masalan, Yakopo Pontormo ijodida), 20-30-yillarda Rimda (masalan, Julio Romano ijodida sezila boshlagan bo'lsa, 40-50-yillarga kelib, u o'zining klassik ko'rinishiga erishadi. Bu rivojlanishda Italiyaning shimolidagi kichik shaharlar, ayniqsa, Parma etakchilik qildi.

Franchesko Maststola (1503-1540). Parmidjanino deb nom olgan parmali rassom Maststola ijodida manerizm oqimiga xos bo'lgan xususiyatlar to'liq ifodasini topdi. U o'zining ilk asarlaridayok. (masalan, «+avariiq ko'zgu oldidagi avtoportret» (1527 y.), «Atirgulli madonna» (1527 y.) da shu fazilatlar ko'rina boshladi, rassom dastlab tomoshabinni o'zining ishlash uslubi va tasvirlanayotgan voqelikning hayratda qoldiradigan darajada bo'lishiga intiladi. Ishlagan madonnalarini ko'p xollarda kichik boshli, uzun bo'yinli, naynov, g'ayri tabiiy xatti-harakatda tasvirlaydi, asar uchun yorqin, serjilva kolorit tanlaydi. Parmidjanino ijodidagi bu xususiyatlar manerizm oqimining rivojlanishi va yoyilishida katta ta'sir qildi.

Jorjo Vazari (1511-1574). Maxobatli-dekorativ rangtasvirdagi manerizmning tipik vakili Vazari xisoblanadi. Uning asarlari o'zining obraz va

detallarining haddan ortiq ko'pligi, kompozitsiyalarining birmuncha bo'sh ishlanganligi bilan harakterlanadi. Lekin Vazari san'at tarixida o'zining «Eng mashhur rassom, haykaltarosh va me'morlar hayoti to'g'risida» degan kitobi bilan shuxrat qozongan.

Benvenuto Chellini (1500-1571). Florensiya manerizmning yirik vakili, zargar va haykaltarosh Chellini hisoblanadi. U Florensiya, Rim, Mantuyada yashab ijod etgan. Bir necha bor Fransiya borgan va bu bilan fransuz san'atiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan

2.4. Sandro Botticelli ijodi

Sandro Botticelli ilk Uyg'onish davrining eng emostional va poetik rassomlaridan, Florensiya maktabi so'nggi bosqichining tipik vakili hisoblanadi. Uning asarlari o'zining chuqur lirizmi, voqelikni nihoyatda shoirona talqin etishi bilan harakterlanadi. Botticellining ilk asarlari o'zining mayin lirikasi va beguborligi bilan harakterlanadi. Bu uning diniy mavzudagi asarlarida, konkret shaxslarga bag'ishlangan portretlarida ko'rinadi.

«Baxor» (1478), «Veneraning tug'ilishi» (1484) kabi etuk asarlari antiqa afsonalaridan olingan syujetlarni ijodkor shoirona, o'z qalb harorati bilan original talqin eta olishini ko'rsatadi .

1490 yillardan boshlab, rassom ijodida pessimistik kayfiyatlar kuchaya borib, bu narsa uning asarlarida ham o'z aksini topa boshladi. Bunga sabab, albatta, shu davrda sodir bo'lgan voqealardir. Lorensto Medichining vafoti, Florensiyaning Fransiya qo'shinlari tomonidan bosib olinishi bilan bir vaqtda bo'ldi. Rassomning ana shu kayfiyati, ayniqsa, uning yopilgan darvoza yonida yig'lab o'tirgan yolgiz yosh ayolni tasvirlovchi «Haydalgan juvon» (1495) asarida namoyon bo'ladi

Botticelli ajoyib qalamsurat ustasidir. U birinchi bo'lib Dantening «Ilohiy komediya»siga illyustratsiyalar ishlagan.

XV asr ikkinchi yarmida Florensiya san'atida sodir bo'lgan o'zgarishlar haykaltarosh va rassom Andrea Verokkio ijodida ham o'z aksini topdi. Verokkio o'z ijodini zargarlik bilan boshladi. Keyinchalik ana shu san'atga xos bo'lgan fazilatlari voqelikni tasvirlashda detallarning tugal va nafis bo'lishiga e'tibor berishni dastgoh va monumental haykaltaroshlikka ham ko'chirdi. Verokkioning haykaltaroshlikka oid asarlari ichida, ayniqsa, «Dovud» va «Kondoter Kolleoni» haykallari mashhurdir.

Bu haykallarning g'oyaviy yo'nalishni va harakterini tushunish uchun Donatelloning «Dovud» va «Kondoter Gattamelatta» haykallari bilan taqqoslash maqsadga muvofiqdir. Agar Donatello haykallari ko'rinishi va obrazlari harakterida insoniylikka xos chuqur hissiyot mavjud bo'lsa, aksincha, Verokkio obrazlarida qattiqqo'llik, aristokratik ruh mavjud. Bu kondoter Kolleoni haykalida yanada bo'rtib ko'rinadi

Venetsiya maktabi. XV asr ikkinchi yarmida Venetsiyada ham Uyg'onish san'ati tamoyillari rivojlana boshladi. Uning yirik vakillari Jovanni Bellini (1430-1516), Vittore Karpachcho (tax. 1456-1526) ijodi esa, Italiya ilk Uyg'onish davrining yuqori Uyg'onish davriga o'tish chegarasini belgiladi. Vizantiya, G'arbiy Evropa davlatlari bilan yaqin aloqada bo'lgan boy savdogarlar respublikasi Venetsiya san'atkorlari Sharqning boy, serjilo va yorqin san'ati va gotika an'alarini o'zlashtirgan xolda o'ziga xos jozibador san'at maktabini yaratishga muvassar bo'ldilar. Shu erda moybo'yoq. texnikasi rivojlandi, Venetsiyaning yuqori Uyg'onish davri san'ati o'z tamoyillarini shakllantirdi, keyingi Venetsiyaning buyuk koloristlari uchun zamin yaratdi. Venetsiya kvatrochentos tamoyillari Pizanello va Jentile da Fabriona ijodida ko'rina boshlagan bo'lsa, Vittore Karpachcho ijodida o'zining to'liq ifodasini topdi. Uning moybo'yoqda ishlagan diniy mavzudagi asarlarida rassom zamondoshlari, ularni o'rab olgan muhit, tabiat, me'morlik ko'rinishlari aks ettirildi. Venetsiya kanallarida suzib borayotgan gandolalar, balkondan tashqarini tomosha qilib o'tirgan ayollar tasviri- bularning hammasida rassom zamonasining ruhi o'z ifodasini topgan.

So'zsiz, Venetsiya kvatrochentos rivojlanishida Bellinilar oilasi -Yakopo Bellini hamda uning ikki o'g'li-Jentile va Jovannilarning qo'shgan xissasi kattadir. Jovanni Belinni shu oila a'zolari ichida moybo'yoq. texnikasini mukammallashtirish va rivojlantirishga katta xissa qo'shgan bo'lib, ranglar jilosi boyligidan, inson ruhiy olamini ochishda tabiat ko'rinishi imkoniyatlaridan


unumli foydalandi. U xikoyanavislik, mayda-chuyda detallarga e'tibor berishdan voz kechib, o'z diqqatini,eng avvalo, yaxlit va tugal shakllarda insonning ma'naviy qiyofasini ochishga harakat qildi. Uning asarlari o'zining boy koloriti, muvozanatli, vazmin kompozistiyasi, har bir obraz harakterining ochib berilishi va taqqoslanishi bilan Italiyada kvatrochentodan yuqori Uyg'onish davriga o'tish tamoyillarini namoyon qiladi.

Venetsiya maktabi Italiya kvatrochentosiga yakun yasadi. Ilk UYG'ONISH davri san'ati antik san'at an'analarini yangi davr talablari asosida qayta tikladi. Kvatrochentistlar diniy mavzudagi syujetlarga asarlar ishlab, ularda azaliy masala inson va tabiat, insoniylik problemalarini ko'tarib chiqdilar. Bu fazilatlar yuqori UYG'ONISH davri uchun muhim zamin edi.

Xulosa

O'zbekiston tasviriy dastgoh san'ati juda qisqa vaqtda rivojlanib, katta yutuqlarga erishdi. O'zbekiston san'ati zafarli yo'lni bosib o'tdi. Respublikamiz rassomlari ko'pgina ko'rgazmalarda faol ishtirok etib, san'atimiz ta'sirchanligining ortib borayotganini namoyish etdilar. Bizning rassomlarimiz ko'pgina janrlarda ijod qilib kelmoqdalar, manzara, natyurmort, portret va boshqa. Natyurmortda bozorlarimizning to'lib toshgan noz-ne'matlarini, manzara janrida esa, o'lkamizning go'zalligini va bepoyonligini, oddiy tabiat ko'rinishidagi go'zallikni to'laqonli ifodalashga harakat qilmoqlar. Shu bilan birga qadimdan qolgan butun dunyoga taniqli ajib me'morchilikning nodir yodgorliklarini o'z asarlarida ko'rsatdilar. Portret janrida esa Vatanimizning ilg'or kishilarini, mehnatkash xalqni, shoir, rassom, musiqachilarni tasvirladilar. Bizning O'zbekiston Vatanimiz ajoyib iste'dodli rassom va haykaltaroshlarni etkazib berdi. Bular ichida Iskandar Ikromov, Chingiz Ahmarov, Malik Nabiev, Mannon Saidov, Damir Ro'ziboev, Ilhom Jabborov, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzaev, Akmal Ikromjonov, Ne'mat O'akimov, Osimxon Vosixonov, Temur Sa'dullaev, o'ofur Abdurahmonovlar alohida mavqega ega. O'zbekiston xalq rassomi Alisher Mirzaev rangtasvir ustasi xalqimiz an'alariga, boy va sermazmun o'tmish tasviriy san'at merosiga hurmat bilan qaraydi. Rassom o'z xalqiga xos psixologik kechinmalarni chuqur tahlil qila oladi. Rassom ona-tabiat bag'rida o'zbekona an'analarni, to'ylarni, beg'ubor o'zbek bolalarini, lobar qizlarni, mushtipar onalar kabi obrazlarni aks ettira olishga muvaffaq bo'ldi. Jumladan, "Toshkent - tinchlik va do'stlik shahri" triptixi, "Bola xonada", "Intizorlik", "Yosh oila haqida qo'shiq" kabi o'nlab asarlar moybo'yoqda yaratilgan. Umuman rassom tabiat va jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarni e'tiborsiz qoldirmaydi. Rassom rangtasvirlarga shunday jon bag'ishlaydiki, undagi go'zallik sirlari odamlarni ezgulikka etaklaydi. Rassom asarlari bugungi kunda xalqimiz hurmatini qozonish bilan birga, ko'pgina xorijiy davlatlarda ham ma'lum va mashhurdir.

ILOVALAR



**Leonardo da Vinchi “Djakonda”
 (“Mona Liza”) asari**



Raphael Cho'pon qiz



Avliyo Mariya Magdalina



E.Dega Moviy raqqosalar



A.Sisley Manzara



J.Sera Sena daryosi

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.,1998
2. Karimov I.A. O'zbekiston XX1 asrga intirlmoqda. T.,1999.
3. Karimov I.A. Yukcak ma'naviyat-engilmas kuch.T.,2008
4. Abdullaev N. San'at tarixi.T. O'qituvchi, 1987.
- 5.Ilyos Akbarov. Musika lugati. G.Gulom nashriyoti. T.: 1997 y.
- 6.R.t.Akbarov. Musika sexrlari. T.: 2000 y.
- 7.Fitrat. «Uzbek klassik musikasi va uni tarixi». T.; Fan. 1993 y.
8. A. Odilov. «Uzbek xalk cholgularida ijrochilik tarixi». T.; «Ukituvchi». 1995y
9. X.Xamidov. « Uzbek an'anaviy kushikchilik madaniyati tarixi». T.; «Ukituvchi». 1996 yi.
- 10.A. Leviev «Uzbek milliy cholguchilik tarixi». T.; «Ukituvchi». 2005 y.
- 11.Istoriya zarubejnogo iskusstva.Pod red. N.L.Maltsevoy, M.L.Kuzminoy.- M.,1980.
12. Kaziev A.Yu. Xudojestvennoe oformlenie rukopisnoe knigi. M.,1977.
13. Kratkiy slovar terminov izobrazitelnogo iskusstva.M.,1959.
14. Ocherki po istorii russkogo iskusstva.M., 1954.
15. Polevoy V.M. Iskusstva XX veka . 1901-1945. M.,1991.

MUNDARIJA

Mavzu: «Chet el rassomlari hayoti va ijodi»

I. Kirish.....3-4 betlar

II. Asosiy qism.....5-6 betlar

2.1 Leonardo da Vinchi hayoti va ijodi.....7-21 betlar

2.2. Mikelanjelo ijodi.....22-28 betlar

2.3. Yakopo Sansovino

Venetsiyada olib borilgan ijodi.....29-35 betlar

2.4. Sandro Bottichelli ijodi.....36-38 betlar

Xulosa.....39 bet

Ilovalar.....40-46 betlar